

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммаед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммаед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna</b> O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
<b>2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda</b> SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
<b>3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li</b> SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
<b>4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich</b> BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
<b>5. Qurbonova E‘zoza</b> HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
<b>6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna</b> TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
<b>7. Usmonova Zarina Habibovna</b> THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
<b>8. Valieva Noiba Abbasxonovna</b> TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
<b>9. Dilorom Ikramovna Hakimova</b> “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
<b>10. Xasanova Shaxzoda</b> FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
<b>11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов</b> БМТ ИСЛОХОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
<b>12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Ахмедов Нодирбек Алиевич</b> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
<b>13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна</b> ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
<b>14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi</b> ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
<b>15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна</b> HEMIS TILI FEЬLLARINING AKЦИОНАЛ TАСНИФИ.....	85
<b>16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi</b> USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
<b>17. Jo‘raqulova Mushtariy</b> O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
<b>18. Maftuna Kamarova Umar qizi</b> KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

<b>19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna</b> LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
<b>20. Рашидова Камила Ахмаджонова</b> ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
<b>21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодира Бахронкуловна</b> РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
<b>22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza</b> PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
<b>23. Ikramova Kamola Shuhratovna</b> THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
<b>24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abryukul kizi</b> SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
<b>25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi</b> ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
<b>26. Muhtarova Nigina</b> THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
<b>27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna</b> KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
<b>28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li</b> SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
<b>29. Рашидова Камила Ахмаджонова</b> ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
<b>30. Ikromova Nigina Oybekovna</b> THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
<b>31. Эргашева Дилноза Тохировна</b> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
<b>32. Nasiba Azizova</b> THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180



UDK: 81.255

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz


**Xasanova Shaxzoda**

Oriental universiteti o'qituvchisi

Orcid 0000-0001-6517-0252

E-pochta: xasanovashaxzoda@gmail.com

TDSHU PhD dotsenti Ismatullayeva Nargiza taqrizi ostida

**FE'L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14799704>**ANNOTATSIYA**

Asar tarjimasidagi til birliklari, asosan, leksik va frazeologik vositalardan iborat bo'lib, ularning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasini tarjimondan tajriba talab qiladi. Ma'lumki, frazeologik birliklar leksik birliklarga qaraganda tilning birmuncha murakkab strukturaviy vositalaridir. Chunki frazeologik birliklar badiiy-vizual nutq vositasi sifatida oddiy fikr bayonidan ko'ra turli uslubiy maqsadlarni ifodalashda ishtirok etadi. Ularning tarjimada bu vazifalarni nozik talqin qilishlari badiiy asarning ramziy va emotsional-vizual qiymatini qayta yaratish bilan chambarchas bog'liq. Tarjimadagi u yoki bu frazeologik birlikning asl nusxadagi frazeologik birliklarga ma'no va uslubiy vazifa nuqatayi nazaridan mos kelishini faqat ilmiy-matn tahlili natijasida aniqlash mumkin. Frazeologlar ham leksik birliklar kabi ko'p ma'noli va ko'p maqsadli bo'lib, tarjimada har doim ham ikki til birligi o'zaro almashtirilmaydi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, frazeologik ekvivalentlar, muqobil, tasviriy tarjima, emotsional, psixo-emotsional, emotsional-ekspressiv

**Хасанова Шахзода**

Преподаватель университета Oriental

ORCID 0000-0001-6517-0252

Электронная почта: xasanovashaxzoda@gmail.com

Под отзывом Исматуллаевой Наргизы, доцента ТДШУ.

**ПЕРЕВОД ГЛАГОЛОВНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ****АБСТРАКТ**

Языковые единицы при переводе произведения состоят в основном из лексических и фразеологических средств, а их перевод с одного языка на другой требует от переводчика опыта. Известно, что фразеологизмы являются несколько более сложными структурными средствами языка, чем лексические единицы. Потому что фразеологизмы как средство художественно-образительной речи участвуют в выражении различных методических целей, а не простом изложении мнения. Их тонкая трактовка этих задач в переводе тесно связана с воссозданием символического и эмоционально-визуального значения произведения

искусства. Определить, соответствует ли тот или иной фразеологизм в переводе фразеологизму в оригинале по смыслу и методической задаче, можно только в результате научного анализа текста. Фразеологи, как и лексические единицы, многозначны и многоцелевые, а две языковые единицы не всегда взаимозаменяемы при переводе.

**Ключевые слова:** фразеологизмы, фразеологические эквиваленты, альтернатива, образный перевод, эмоциональный, психоэмоциональный, эмоционально-экспрессивный.

**Xasanova Shahzoda**

Teacher of Oriental University

Orcid 0000-0001-6517-0252

E-mail: xasanovashaxzoda@gmail.com

Under the review of PhD associate professor of TSOUS Ismatullayeva Nargiza

## TRANSPORTATION OF VERB PHRASEOLOGISMS

### ABSTRACT

Linguistic units in the translation of a work mainly consist of lexical and phraseological means, and their translation from one language to another requires experience from the translator. As is known, phraseological units are somewhat more complex structural means of the language than lexical units. Because phraseological units, as a means of artistic-visual speech, participate in expressing various stylistic goals rather than a simple statement of thought. Their subtle interpretation of these tasks in translation is closely related to the recreation of the symbolic and emotional-visual value of a work of art. The correspondence of a particular phraseological unit in the translation to the phraseological units in the original in terms of meaning and stylistic function can only be determined as a result of scientific textual analysis. Phraseologisms, like lexical units, are multi-meaning and multi-purpose, and two language units are not always interchangeable in translation.

**Keywords:** phraseologism, phraseological equivalents, alternative, figurative translation, emotional, psycho-emotional, emotional-expressive

Muayyan matn vaziyatida bir-birini osongina almashtira oladigan frazeologik ekvivalentlar yoki muqobillar boshqa vaziyatda ma'no berishi yoki uslubiy vazifalari bilan farq qilishi mumkin. Bunday vazifalarda ijodkorning o'z mas'uliyatiga ijodiy munosabati tarjimada asl nusxaning noto'g'ri talqin qilinishi xavfini bartaraf etadi. Frazeologik masalalar va turli tillardagi so'zlarning turli birikmalarining umumiy muammosi tarjima nazariyasi bilan bir qatorda tarjima amaliyoti uchun ham juda muhimdir. Chunki turli tillarda bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan birikmalarining vazifalari bir-biridan farq qiladi, chunki ular bir-biridan farq qiladi. turli tillardagi bunday so'z birikmalarida tarjima amaliyotida katta qiyinchiliklar tug'diradi va nazariy jihatdan katta qiziqish uyg'otadi.

Frazeologik iboralar ko'pincha muallif tilida va adabiy asarda tasvirlangan personajlar nutqida uchraydi, shuning uchun ular badiiy adabiyotga juda xosdir. Biroq, A.V. Fedorovning fikricha, nutq vositalarining bu toifasi faqat badiiy adabiyotning shaxsiy mulki bo'la olmaydi. Chunki frazeologik iboralar publitsistikada va qisman ilmiy adabiyotlarda ham qo'llaniladi. Shuning uchun ularga nafaqat badiiy adabiyot, balki umumiy til masalasi sifatida qarash kerak. Badiiy tarjimada aks ettiruvchi frazeologizmlarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Asl frazeologizmni tarjima tilidagi ekvivalentlari bilan almashtirish;
2. Asl til frazeologiyasini tarjima tilidagi muqobil variantlar bilan tarjima qilish;
3. Asl til frazeologiyasining aniq tarjimasi (bu frazeologik iboralarni tarjima qilishning umumiy usuli).

Tarjimon muallif nomidan qalam tebratar ekan, demak u muallif uslubini aks ettiradi. Bitta asarni badiiy qobiliyatlari bir xil bo'lgan o'n kishi tarjima qilsa ham, o'nta butunlay boshqa tarjimalar chiqadi. Buning sababi shundaki, avvalo, har kim o'z yo'lida muallif uslubining aks etishini tushunadi, bundan tashqari, har qanday tarjimada tarjimon uslubining ta'siri yaqqol seziladi. Tarjimada frazeologizmlarni aks ettirish asl nusxaning milliy xarakterini va muallif uslubini aks

ettirishda katta ahamiyatga ega. Bundan kelib chiqib, ayrim olimlar asardagi frazeologik birliklarni qanday bo'lsa, shunday tarjima qilishni tavsiya qiladi. Tarjima nazariyasida bu salbiy hodisa sifatida qaraladi.

Frazeologizmlar fikrni ta'sirchan holatda yetkazish, shuningdek, biror bir hodisani aks ettirish uchun ishlatiladi. Ularning birlamchi vazifalaridan biri nutqqa hissiy rang berish, uning ta'sirchanligini oshirishdir. Frazeologik birliklardan to'g'ri foydalanish nutqning o'ziga xos ifodaliligi, aniqligi va obrazlilikini ta'minlaydi.

Ekvivalentlar to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. To'liq ekvivalentlar o'zbek tilining ma'nosi, lug'aviy tarkibi, obrazlilik, uslubiy bo'yoqlari va grammatik tuzilishiga mos keladigan tayyor ekvivalentlar.

Qisman frazeologizmning ekvivalentlarni tarjima qilishi frazeologizmning ma'no va obrazlilikini tarjimada qisman yoki to'liq ko'rsatilmaganligini bildirmaydi; bu atama taklif etilayotgan ingliz ekvivalentlari o'zbek ekvivalentlaridan biroz farq qilishi mumkinligini bildiradi. Tarjimon uchun "Frazeologik birlikni tarjima qilishda birinchi navbatda frazeologizmning til tuzilishini emas, balki uning obrazini berish muhim". Qisman ekvivalentlarni uch guruhga bo'lish mumkin; Birinchi guruhga ma'no, uslubiy bo'yash va obrazlilik jihatidan yaqin bo'lgan, lekin leksik tarkibi jihatidan farq qiluvchi frazeologlar kiradi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimon o'zining turg'un yoki o'zgaruvchan ibora bilan ishlayotganligini farqlay olishi kerak. Buning uchun juda katta "frazeologizmlar zaxirasi" bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, iboralar so'zlar kabi polisemiya va omonimiya bilan ajralib turadi, garchi ma'nolardan biri, ikkinchisi frazeologning omonimlari bo'lishi mumkin.

Frazeologizmlarni tarjima qilishda maksimal adekvatlikka erishish uchun tarjimon turli xil "tarjima qarashlari"dan foydalana olishi kerak.

1. Ekvivalent, ya'ni o'zbek tilidagi adekvat moslama tarjima tilidagi qurilmaga ma'no, mazmun va tasvir asosi jihatidan mos keladi.

2. Muqobil, ya'ni o'zbek tilidagi shunday turg'un iboralar, ma'nosi ingliz tiliga adekvat, lekin tasvir asosi jihatidan undan qisman yoki butunlay farq qiladi.

3. Tasviriy tarjima, ya'ni iboraning ma'nosini erkin iboralar bilan tarjima qilish. Ko'chma tarjima o'zbek tilida ekvivalenti va o'xshashi bo'lmaganda qo'llaniladi.

Ko'plab tadqiqotlarning tahlili natijasida frazeologik birliklarning til va nutqdagi vazifalariga ko'ra juda ko'p turlicha fikrlar bildirilganligi bois, ularning umumiy holatda bir qancha vazifalar bajarishi mumkinligini sanab o'tishni o'rinlidir: emotsional jihatdan baholovchi vazifa, bunda frazeologik birliklarga emotsional baho beradi (ijobiy yoki salbiy), shuningdek, so'zlovchining ruhiy holatini ifodalaydi. Hissiylik deyarli har doim emotsionallikni o'z ichiga oladi. Frazeologik birliklar o'zining emotsional tabiatiga ko'ra nutqqa ko'proq hissiyot beradi; milliy madaniyatni ko'rsatib beruvchi frazeologizmlar, bunda jamiyatning taraqqiyoti natijasida frazeologizmlar madaniy axborot tashuvchisi sifatida uni bevosita yoki bilvosita ifodalab, madaniy munosabat ajdodlarimizning mezon va stereotiplarni avloddan-avlodga o'tib boradi. Turli tillardagi frazeologik birliklarning xususiyatlarini bilish ikkinchisini chuqurroq o'rganishga, shuningdek, boshqa xalqlar vakillarining madaniyatini tushunishga imkon beradi, madaniyatlararo muloqot jarayonida chet tilidagi hissiy nutqni etarli darajada idrok etishga yordam beradi; psixo-emotsional holatni ifodalovchi frazeologizmlar.

Bunda, so'zlovchining yoki asardagi vaziyatidagi emotsional holatini yorqinroq tasvirlash uchun xizmat qiladi. Foydalanilgan fe'l frazeologik birliklar fikr bildirayotgan inson xohish-istagi, niyatini hissiy jihatdan ifodalab ta'sirchanligini oshiradi. Shu o'rinda V.N.Teliya "frazeologik birliklarning emotsional bahosi tasviriy kuchga ega, ya'ni so'zlovchining kommunikativ niyatiga mos keladigan ma'lum bir tuyg'u-munosabatni boshdan kechirishga undaydi. Kommunikativ omad bo'lsa, bu birliklar kerakli perlokatsion effektini keltirib chiqaradi. Oxir oqibat, frazeologik birliklar nutqiy harakatlarning kristallangan realizatsiyasini tashkil qiladi" degan fikrni aytib o'tgan.

Psixo-emotsional holatini anglatuvchi frazeologik birliklar ham tinglovchiga ta'sir qilish, dialogga e'tiborni qaratish va shaxs haqida gapirayotgan narsaga ishonch berish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Og'zaki nutqda emotsionallikni oshirishda, tinglovchi o'zining keyingi harakatlarning

ta'sirchanligini oshirib, mavzuni butunlay boshqa tarafga burib yuborishi mumkin. Shuningdek, psixo-emotsional frazeologik birliklar so'zlovchining tasvirlangan vaziyatlarga o'ziga xos nutq ta'sirchanligi bo'lib, ushbu so'zlarni quyidagicha ifodalash mumkin.

Iltilmos va kechirim so'rash ma'nosini bildiruvchi so'zlar, *peshonasini yerga tekkizish, iltijo qilib yaratgandan so'rash, birovdan nimanidir so'ramoq* xitoy tilida 不情之请 *bù qíng zhī qǐng* fe'l frazeologik birikmasi – *og'ir, sharmandali iltimosdir*; 好说歹说 *hǎoshuōdǎishuō* – *mehribonlik va donolik bilan ko'ndirish*.

Matndagi lingvistik vositalarning o'zaro ta'siri, matnning predmetli-mantiqiy mazmuni hamda unda singdirilgan emotsional, ekspressiv, baholovchi va estetik frazeologizmlar bilan birga qo'llanishini ta'minlovchi stilistik vazifa sifatida belgilanadi. Shu munosabat bilan adabiy tilda frazeologik birliklar keng qo'llaniladi.

Fe'l frazeologik birliklar ijobiy (sevgi, do'stlik, sahovat) *Bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday* 秀色可餐 *xiùsèkēcān* (OO, 17) va salbiy (qo'rquv, nafrat, qasos) *Ilonning yog'ini yalagan* 鸡蛋掉进油锅里——滑透了 *Jīdàn diào jìn yóu guō lǐ——huá tòule* (OO, 49) his-tuyg'ularni va hissiyotlarni ko'rsatib beruvchi muhim vositasidir. Shuningdek, ular birlamchi ma'noni anglatib hissiyotni baholab beradi. Frazeologik birliklarning boshqa turlari singari, emotsional frazeologik birlik ham so'zlovchi tomonidan nutq obyektiga baho berishni anglatmaydi, unga emotsional holatni anglatishda xizmat qiladi.

Emotsional-ekspressiv fe'l frazeologizmlar ijobiy hamda salbiy holatni ifodalab nutq obyektiga qaratilgan bo'ladi. O'zbek tilida *ko'z so'zi* bilan bog'liq frazeologik birliklarning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uch xil holatda namoyon bo'lganiga amin bo'lamiz: *ko'z(i)ga cho'p solmoq, ko'zi(ni) bo'yamoq, ko'zi yetmoq*. Har uchala holatda ham ko'zning semantik ma'noda saqlashi bilan bir qatorda ma'no jihatdan bir-biridan farq qiladi. Barcha misollarda so'zlar mustaqil nutq qismlari (fe'llar va otlar) bilan bir xil tarzda belgilanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarda ma'lum semantik va stilistik farqlar paydo bo'ladi, ular hissiy ta'sir doirasi bilan belgilanadi. Demak, *ko'z(i)ga cho'p solmoq* frazeologik birlik nominativ ma'nosi *aldamoq* bo'lib, ishlatilish holati vaziyatning qulayligidan foydalanishda ishlatiladi. Ikkinchi misolda, 露马脚 *lòumǎjiǎo ko'zi(ni) bo'yamoq* fe'l frazeologik birligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu so'z ham ko'zbo'yamachilik qilish, ya'ni kimnidir aldash manosini ifodalab kelgan. Uchinchi ibora esa nominativ ma'nosi yuqoridagilardan farq qiladi, lekin bu aynan *ko'z so'zi* orqali yasalgani sababli tahlilga qo'shilgan. *Ko'zi yetmoq* biron bir ishning uddasidan chiqishiga ishonish deb, nominativ ma'nosini esa bir so'z bilan *ishonmoq* deyish mumkin. Birinchi va ikkinchi keltirilgan misollar, yanada hissiy rangga ega bo'lgan holatni ko'rsatadi. Uchinchi misolda *ishonmoq* so'zining bo'yoqdorligini oshirib, holatning yanada ta'sirchanligini oshirishda ishlatiladi. Ushbu frazeologik birliklarni xitoycha tarjimalari quyidagichadir: 登堂入室(GO, 65) *dēng táng rù shì* – *Ko'zi yetmoq*, 炫玉贾石(GO, 482) *xuàn yù gǔ shí* – *ko'zi(ni) bo'yamoq*, 尔虞我诈(GO, 115) *ěr yú wǒ zhà* – *ko'z(i)ga cho'p solmoq*. Fe'l frazeologik birliklar yordamida tasvirlangan xususiyatlari hissiy holatni ko'rsatilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, holatning fe'l frazeologik birliklarida hissiyotning belgilanish darajasi o'rtacha yoki hatto past bo'lishiga qaramay, u fe'l frazeologik idioma yordamida hissiyot hamda tuyg'u ifodalanadi.

Quyidagi fe'l frazeologik birliklar salbiy, ya'ni nafrat his-tuyg'u holatini ifodalaydi: 心怀叵测 *xīn huái pǒ cè* – *diliga tugib qo'ymoq, yuragida nafrat olib yurmoq*, 深仇大恨 *shēnchóudàhèn* – *nafratlanmoq*.

当时我只看到她嘟哝着·脸色红得发紫·心中仿佛充满了**深仇大恨**(MY, 241)。 *Dāngshí wǒ zhǐ kàn dào tā dūnongzhe, liǎnsè hóng dé fā zǐ, xīnzhōng fǎngfú chōngmǎnle shēnchóudàhèn.*

O'shanda ro'paramda yuzi cho'g'day yongan va yuragi nafratga to'la vaysaqi xotingina bor edi (AF, 316).

O'sha paytda u menga yuzlari qizarib nafrat ila ming'irlyotgandek ko'rinardi (T).

Ma'lumki, qo'rquv hissi turli holatlarda va turli vositalar bilan ifoda etiladi. Masalan, qo'rquvdan terlash xitoy tilida quyidagi frazeologik birlik bilan beriladi: 汗流浹背 (GO, 173) *hàn liú jiā bèi* so'zma-so'z tarjima qilinganda *ter oqqanidan yelka qismlarining ho'l bo'lib ketishi, juda qattiq qo'rqish "ajal teri to'kmoq"* frazeologizmi yordamida qo'rquv holatini ifodalash mumkin.

Til murakkab tizim ekanligi ma'lum. U faqatgina fonetik, leksik-frazeologik, so'z yasalishi va grammatik sathda qurilmasdan, balki stilistik munosabatda ham mavjud bo'ladi. Uslubiy bo'yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi, shuningdek, neytrallikni ifodalovchi vositalar, turli uslublar va ularning tarkibi, tilning stilistik majmuasini tashkil qiladi. Fonetikaning o'rganish ko'lami tovushlar bo'lsa, leksikologiyaning o'rganish ko'lami leksika, grammatikaning o'rganish ko'lami esa so'z qurilishi va gapdir. Stilistikaning o'rganish obyekti har bir til sathining o'zida mavjud bo'ladi. Shu ma'noda fonetik stilistika, leksik stilistik, frazeologik stilistika, grammatik stilistika kabi sathlari farqlanadi.

Tilning stilistik tuzilishi yoki stilistik sathi bo'lgan fonetik, leksik-frazeologik, so'z yasalishi, grammatik qismlari umumiy stilistikaga bir butun holda ta'sir etadi va uni tashkil etadi. Masalan: yuz-bet-chehra-bashara-turq so'zlari faqat fonetik yoki grammatik jihatidan emas, balki semantik-stilistik rejada ham qiziqarlidir. Qayd etilgan so'zlar insonning ma'lum bir tana a'zosini ifodalashi, ya'ni nominativ vazifani bajarishi ma'lum, ammo bu so'zlar bir-birlaridan ma'lum stilistik ottenkali bilan farqlanadi. Stilistik paradigma, asosan, leksikada ko'p uchraydi, ammo bu hodisa tilning boshqa sathlarida ham o'z aksini topmoqda. Boshqa tillardagi kabi o'zbek tili frazeologiyasi ham mislsiz til hodisasi bo'lib, bunda o'zbek xalq tilining o'ziga xos ijodiyoti, milliyliги gavdalanadi.

O'zbek tilining frazeologik boyligi uning son tarkibi bilan belgilanib qolmasdan, balki ularning keng ma'no ko'lamligi va turli stilistik sifatlari bilan ham belgilanadi. Frazeologizmlarda so'zning stilistik xarakteristikasi funksional-stilistik bo'yoqdorlik, emotsional-ekspressivlik va baho-munosabat bilan omuxta holda mavjud bo'ladi. Masalan, tilimizdagi *yuragi yorildi* qattiq qo'rquvni yoki qattiq hayajonni anglatib, nutqqa qo'shimcha emotsional bo'yoq baxsh etadi. Tilimizdagi *sodda dil* birikmasi ham so'zlashuvga xos bo'lib, uning semantik tarkibida stilistik bo'yoqdorlik yo'q, ammo baholash xususiyati mavjud. Frazeologizmlarning predmetlik ma'nosidan tashqari emotsional-ekspressiv, baho-munosabat kabi ma'no elementlarining omuxtaligi faqatgina predmetga xos bo'lgan mantiqiy ma'noni ifodalab qolmasdan, shu bilan birga obrazli tasavvur va predmetning mantiqiy ma'nosiga emotsional munosabatni ham ifodalashi bilan xarakterlanadi. Masalan, *pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan* frazeologizmlari katta hayotiy tajribalilikni, shumlik, mug'ombirlik kabi kishining xarakterini ifodalaydi. Shu bilan birga bu frazeologizmlar kishiga nisbatan ironik munosabatni ham ko'rsatadi. Shu bois bularni neytral vaziyatda ishlatib bo'lmaydi. Demak, bular umumiste'mol frazeologizmlari bo'lmasdan, uslubning birortasiga xoslangan bo'ladi.

Nutqda frazeologizmlar, asosan, insoniyat holatini ifodalovchi so'zlarning bilvosita qo'llanilishi natijasida hosil bo'lib, emotsionallik, ekspressivlik, obrazlilik, umuman, pragmatik vazifani bajaradi. Shu ma'noda frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Og'zaki nutqda ham yozma nutqda ham frazeologizmlarning ishtiroki nutqning jonli, tasviriy, obrazli bo'lishini ta'minlaydi, unga milliy o'ziga xoslik baxsh etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. –М.: Филология три, 2002.. –С. 135.
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б 10.
3. Ҳамидов Х.Х. Турк фразеологияси масалалари./Монография. –Тошкент: Баёз, 2019, – Б. 61.
4. Хасанова, Ш. (2023). Феъл фразеологизмларда вариантланиш (хитой ва ўзбек тиллари мисолида). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(23), 127-131.

5. Xasanova, S. (2021). Rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi: rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(7).
6. Shaxzoda, X. (2020). Lexical Properties Of Pu Songling Novels. *The American journal of social science and education innovations*.
7. Xasanova, S. (2022). Xitoy va o'zbek tillarida fe'l frazeologizmlarining antonomiya hodisasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 29), 188-197.
8. Khasanova, S. A. Q. (2022). Analysis of verb phraseological units in chinese. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 280-283.
9. qizi Khasanova, S. A. (2024). Phraseologisms related to the way of life of a person. *current research journal of philological sciences*, 5(02), 19-22.
10. qizi Khasanova, S. A. (2024). Verb phraseologisms expressing positive and negative feelings in uzbeki and chinese languages. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(02), 22-24.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000